



ULUG'BEK HAMDAMNING OTA ROMANIDAGI INSON  
RUHIYATI TASVIRI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TILLARNI O'RGATISH FAKULTETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOT YO'NALISH

40-25GURUH I-KURS TALABASI

**TOLIBOVA FARANGIZ**

ILMIY RAHBAR-NASRULLAYEV ELMUROD

[TEL:+998953490706](tel:+998953490706)

[farangiztolibova406@gmail.com](mailto:farangiztolibova406@gmail.com)

**Annotatsiya:** “Ota” – Ulug‘bek Hamdamning zamonaviy o‘zbek jamiyati hayotida ota shaxsi, or- nomus, taqdir va kechirim masalalarini yoritadigan psixologik- falsafiy romanidir. Asarda Po‘lat ota qizi Sevinchning “nomusini himoya qilish” niyatida qotillikka qo‘l urib, qamoqqa tushadi, shu voqea atrofida esa ota- farzand munosabati, jamiyat qarashlari, adolat va adolatsizlik, insonning ichki iztirobi va iqrori chuqur tahlil etiladi. Ota va qizning qaysi biri haq, qaysi biri nohaq ekani mutlaqo qat‘iy hal qilinmaydi, hodisa “tarozining ikki pallasi tengdek”dek kitobxon hukmiga havola qilinadi, shu orqali muallif o‘quvchini o‘z axloqiy mezonlari ustida o‘ylashga chorlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Ota, farzand, Po‘lat ota, Sevinch, or- nomus, qotillik, qamoqxon, taqdir, iqrornoma, psixologik roman, ichki monolog, oila, jamiyat, gunoh va kechirim, avlodlar munosabati.

**Kirish**

Ulug‘bek Hamdam 1968- yil 24- aprelda Andijon viloyati Marhamat tumanining Yuqori Rovot qishlog‘ida tug‘ilgan.1975–1985- yillarda o‘rta maktabda o‘qigan



keyin ta'limni adabiyot sohasida davom ettirgan, ilmiy ishlar bilan ham shug'ullangan. Yozuvchilik bilan birga adabiyotshunoslik, publitsistika, tarjima sohasida ham faol, turli gazeta- jurnallarda maqolalari chop etilib keladi. Ulug'bek Hamdam zamonaviy ruhdagi romanlari bilan tanilgan: "Muvozanat", "Yo'l" kabi asarlarida o'tish davri, mustaqillikdan keyingi jamiyat, insonning ichki iztiroblari yoritiladi.

"Ota" romanida qahramonlarning ruhiy dunyosi, yolg'izlik, ma'naviy izlanishlar, jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizlik motivlari markazga chiqadi. O'zbek adabiyotidagi eng kuchli psixologik asarlardan biri bo'ldi. Asarda chuqur psixologik tahlil, falsafiy mushohada ustun bo'lib, o'tish davrining ruhiy bosimi ostidagi shaxs obrazi markazga qo'yiladi. Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani zamonaviy o'zbek nasrida ota shaxsining ruhiy- axloqiy dunyosini chuqur tahlil qilgan falsafiy- psixologik asar hisoblanadi. Asarda ota obrazidan kelib chiqib oilaviy munosabatlar, avlodlar qarama- qarshiligi va bugungi jamiyatdagi ma'naviy inqiroz masalalari yoritiladi. Romanda voqealar bir oilaning ichki hayoti, ota va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar orqali ochiladi; bunda ota nafaqat oilaning boshlig'i, balki ma'naviy tayanch sifatida talqin qilinadi. Qahramonlarning ichki monologi, xotira va kechinmalaridan foydalanib, yozuvchi zamonaviy insonning yolg'izlik, mas'uliyat, vijdon azobi kabi holatlarini ko'rsatadi. Asarning yetakchi mavzusi – ota shaxsining qadrsizlanishi, oilada va jamiyatda ota obraziga bo'lgan munosabatning o'zgarishi.

Yozuvchi ota obrazini himoya qiladi, uning mehr- muhabbati, fidoyiligi, og'ir yukini eslatib, oiladagi uyg'unlik ota shaxsiga bo'lgan hurmat bilan chambarchas bog'liq degan g'oyani ilgari suradi. Ota mehrini ba'zan qattiq qo'llik bilan ham tasvirlashi kuzatiladi.

Roman psixologik tahlilga boy ko'p o'rinlarda tashqi voqeadan ko'ra ichki kechinmalar, fikr oqimi va eslashlar yetakchi o'rin tutadi. Tilida zamonaviy, hayotga yaqin dialoglar, xalqona iboralar, falsafiy mulohazalar uyg'un; bu esa asarni bir paytning o'zida ham hayotiy, ham fikrga undovchi qiladi.

## Asosiy qism



“Ota” romani bugungi o‘zbek nasrida oilaviy mavzuni yangi, chuqur psixologik va falsafiy darajada ko‘tarib chiqqan asarlardan biri sifatida baholanadi. Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanida qahramonlar ruhiy kechinmalari juda keskin ichki ziddiyatlar, vijdon azobi va ikkiyoqlama o‘ylar orqali ochiladi.

Po‘lat otaning ruhiy kechinmalari. Po‘lat ota o‘zi qilgan qotillikni “farzand nomusi uchun qilingan ish” deb oqlamoqchi bo‘ladi, lekin ichida “men aslida kim uchun, nimalar uchun bu ishni qildim?” degan azobli savollar tinmaydi. U qamoqda o‘zi bilan o‘zi gaplashadi, tushlar ko‘radi, o‘zini goh qahramon, goh gunohkor sifatida ko‘radi; shu ikki holat o‘rtasidagi ichki kurash uning ruhiy portretini belgilaydi.

Po‘latning eng katta iztiroblaridan biri – jamiyat va yaqinlarining unga beradigan bahosi: “Ota sifatida to‘g‘ri qildimmi yoki shaxs sifatida jinoyatchiga aylandimmi?” degan savol uni qiynaydi. Sevinch asarda shunchaki ayol yaxshi farzand emas, u asarning fojiasi. Insoniyat hamisha oddiy narsalarga suyanib qolishi undagi ichki kechinmalar naqadar kuchliligi Sevinchda aks etdi. E’tibor bersangiz, qahramonning ismi Sevinch, lekin u asar davomida o‘quvchiga eng katta ma’sum g‘amni taqdim etadi. Sevinch tug‘ilgan onda oilasining hursandchiligi ota-onasining quvonchi bir tungi fojia bilan yakunlandi. Ota — o‘sha sevinch ketganidan keyin qolgan jiddiy, og‘ir va mas’uliyatli hayot. Uni hayotini gozallashtirgan bir quvonchni bir lahza ham o‘ylamay yo‘q qilganini ota so‘nggi kunlarigacha o‘ylab o‘tdi. Uning benikoh xaromi deb bilgan nabirasidan uni esladi, xotirladi unga quvonch bergan lahzalarini yodi bilan yashadi. Qahramon Sevinchni yo‘qotgach, o‘z dardini chetga surib, bor e’tiborini uning omonati — yodgoriga qaratadi. Sevinch obrazi — bu qo‘ldan uchgan qush, uning parvozi go‘zal edi, lekin u qaytmaydi. Sevinch o‘ldi, lekin qahramonning xotirasida u "qarimaydi". U doim o‘sha go‘zal, pokiza holidan qoladi. Bu — jismoniy mag‘lubiyat ustidan qozonilgan ruhiy g‘alabadir.

"Inson qachon haqiqiy Ota bo‘ladi?" Mening fikrimcha, Ulug‘bek Hamdam bu savolga Sevinch obraziga o‘langandan so‘ng otaning kech tushunib yetishi, uni



farzandi ekanligini bir lahza unitib qo'ygani endi esa ota mas'uliyatini yelkasiga olganida haqiqiy otalik rfg5darajasiga ko'tariladi.

Romanda qahramonlar ruhiyati ichki monologlar, o'z-o'ziga savol-javoblar, tushlar va eslashlar orqali beriladi, tashqi voqealar ko'pincha ularning ichki kechinmalariga fon bo'lib qoladi. Po'lat otaning qamoqxonadagi fikrlari, Sevinchning o'zini ayblashi, jamiyatning "nomus" tushunchasiga bergan haddan ziyod yuklamasi – hammasi psixologik tahlil markazida turadi. Milliy ruh va ruhiyat Qahramonlarni ruhiy kechinmalarida milliy mentalitet, "ota nomi", "nomus", "gap-so'zdan qo'rquv" kabi tushunchalarning bosimi juda kuchli, ular qarorlar va ichki azoblarning asosiy manbaiga aylanadi. Muallif o'zbek otasi va qizi obrazida nafaqat bir oilaning fojeasini, balki butun jamiyatdagi ruhiy holat, qadriyatlar inqirozi va yangicha fikrlash zaruratini ko'rsatadi.

## **Xulosa**

Mening fikrimcha, Sevinch obrazi asarda shunchaki qahramon emas, u bosh qahramonning vijdonidir. U borligida qahramon dunyoni uning ko'zi bilan ko'radi. U ketgach esa, qahramon "ko'zi ojiz" odamdek qoladi, lekin vaqt o'tishi bilan u qalb ko'zi bilan ko'rishni o'rganadi. Sevinchning o'limi qahramonni atrofdagi odamlar gapi uni ne ko'yga solib qo'ygani tahlil qilish qilgan ishlarini qay darajada noto'g'riligini tushunib yetish so'nggi kunlarini his qilgan holda omonatini topshirishni o'ylash bilan yakunlanadi. Ko'p asarlarda fojia insonni sindiradi lekin "Ota"da iztirob insonni shakllantiradi. Menimcha, muallif bu yerda "Inson dardi naqadar ulug'dir" degan g'oyani ilgari surgan. Qahramon Sevinchni yo'qotish dardi orqali hayotning tub-tubiga nazar soladi. Agar bu fojia bo'lmaganda, u oddiy, yuzaki hayot kechiruvchi kishi bo'lib qolishi mumkin edi.

"Sevinch" emas, balki "Ota" deb nomlangan?

Bugungi jamiyat hayotida ota rolining beqiyosligi uni ichki kechinmalari ulug'ligi ota doim farzand uchun kuyib-yonishi uni bir lahzasini emas butun hayotini go'zallashtirish uchun har narsaga tayyorligi har bir farzandning sezishi kerak bo'lgan tuyg'udir. Asar boshidanoq dardli kechinmalar bilan boshlandi undagi rollar



tasviri bugungi hayotimiz uchun muhim sanaladi. Asarning “Sevinch” deb nomlanmasligiga asosiy sabab bu asar otalar haqida edi. Ularning tuyg’ulari aks etdi asarda ota qilgan ishlari uchun afsuslandi lekin bir vaqtlar shu qizi uchun har narsaga tayyorligi u tug’ilgan kundan boshlab uni tabassumi uchun yashashini aytib o’tadi. Kitobxon albatta, bu so’zlarni unutmaydi asardagi har bir qahramonning his tuyg’ulari e’tiborga olinadi.